

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligiga bag'ishlab
“Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – huquqiy davlat poydevori” mavzusida
ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbiri

B A Y O N I № 4

Yig'ilish raisi:

**M.Toshboboyev – Tadbirkorlik va boshqaruv
fakulteti dekani**

Yig'ilish kotibi:

B.Nazirov – Tarix va falsafa kafedra dotsenti

Qatnashdilar:

- M.Abduraimov – Denov tuman Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi;
- B.R.Xidirov – Denov tuman Adiliya bo'limi boshlig'i
- F.B.Madaminov – Denov tuman Adiliya bo'limi xodimi;
- A.Yo'ldoshev – Karupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masallari bo'yicha doimiy kamisiya raisi;
- O'.T.Normurodov – DTPI yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash bo'yicha rektor maslahatchisi
- A.A.Ibragimov – Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari;
- Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti professor o'qituvchilari va talabalari

K u n t a r t i b i:

1. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Tarix va falsafa” kafedrasidan o'tkazilgan 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi hamda 9-dekabr Xalqaro Korruptsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan “Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – huquqiy davlat poydevori” mavzusida ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbirini o'tkazish.

ESHITILDI

Tadbirni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutning Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani M.J.Toshboboyev kirish so'zi bilan ochib berdi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimiz haotida tub burilish yasagan eng asosiy

islohot bo'lganligini alohida e'tirof etib, barcha qatnashuvchilarni asosiy qomusimizni mustaqil o'rganishga va ijtimoiy faol bo'lishga chaqirdi.



Shundan so'ng, DTPI yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash bo'yicha rektor maslahatchisi O'.T.Normurodov so'zga chiqdi. U o'z so'zini davlat konstitutsiyaviy islohotlarning hayotimizdagi hamda ijtimoiy ma'naviy rivojlanishlarda o'рни haqida nutq so'zladi.

O'zbekistonning davlat konstitutsiyasi xalqimizning shon-sharafi, haq-huquqi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g'urur, faxr va iftixor bag'ishlaydi. U ma'naviyatning eng muhim timsolidir.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Shundan so'ng, Denov tuman Adiliya bo'limi xodimi F.B.Madaminov so'zga chiqib quyidagilarni ta'kidlab o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi.



Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamini kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.



2. Faxriylik belgisi, yozilgan, matnlar orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilgan kun manzaratidan Konstitutsiya qabul qilindi.



Tadbir soʻngida "Tarix" yoʻnalishi 1-kurs 11T-24 guruhi talabalari tomonidan ijro etilgan kuy-qoʻshiq va raqslar, qiziqarli savol-javoblar tadbirga shukuh bagʻishladi. Faol ishtirok etgan talaba-yoshlar tashakkurnomalar bilan taqdirlanishdi.



QAROR QILADI:

1. DTPI yoshlar oʻrtasida ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash bo'yicha rektor maslahatchisi Oʻ.T.Normurodov hamda Denov tuman Adiliya bo'limi xodimi F.B.Madaminovning so'zlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Fakultetdagi barcha yoʻnalish talabalari oʻrtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan "Konstitusiya savodxonligi" kunlari o'tkazilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan fakultetdagi barcha guruhlarda targ'ibot ishlari, "Zakovat" intellektual musobaqalari tashkil etilsin.
4. Mazkur yig'ilish bayoni qarori ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish raisi:

Yig'ilish kotibi:

M.Toshboboyev

B.Nazirov

